



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

**2021- YIL YANVAR-APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)**

**Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 61-222-75-87**

Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-aprel)

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalari tomonidan 5504,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (85,8 %)ni tashkil etdi.



B–Tog‘kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elekt, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘shishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 14,5 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashning – 36,3 % ga o‘shishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 89,8 % ga va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 14,1 % ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|-------------------------|------------------------|------------------------|-----------|
| Ohah tosh, ming t. | 102,7 | 59,3 | -43,4 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 922,3 | 695,2 | -227,1 |
| Gaz kondensati, ming t. | 37,1 | 34,2 | -2,9 |

Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4720,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,8 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2020- yilning yanvar-aprel oylarida – 1,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 68,2 % (66,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,6 % (2,7 %) va quyi texnologiyalisi – 28,0 % (30,2 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 1376,4 ming litr aroq (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 27,6 % ga) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 30,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2,1 %), 4,5 ming tonna kalava ip (14,1 %), 83,3 ming tonna portlandsement (15,0 %), 21,4 ming tonna paxta chigiti (31,8 %), 4,1 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (29,5 %) va 1,2 ming tonna tozalangan guruch (57,4 %) ishlab chiqarilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---------------------------------|---------------------------|---------------------------|--------------|
| Paxta tolasi, ming t. | 19,1 | 13,2 | -5,9 |
| Aroq, ming litr 100 % li spirt | 1078,4 | 1376,4 | 298,0 |
| Paxtadan yigirilgan ip, ming t. | 5289,0 | 4542,5 | -746,5 |
| Polietulen, ming t. | 122,4 | 121,7 | -0,7 |
| Polipropilen, ming t. | 33,8 | 33,0 | -0,8 |

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-aprel oyida)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida kimyo sanoati ulushi 56,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 135,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kimyo sanoatining ulushi 58,1 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 16,4 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 3199,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 17,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 95,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar-aprel oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 69,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 588,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish-ning ulushi 1,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 27,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 55,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 113,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,1 % ni, fizik hajm indeksi 119,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 607,8 mlrd. so'mni tashkil etd.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar-aprel oylarida)



2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 62,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % fizik hajm indeksi 109,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 30,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash


2021- yilning yanvar-aprel oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 743,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (13,5 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,3 % ga oshganligi kuzatildi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|--|------------------------|------------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt/s | 1416,8 | 1666,3 | 249,5 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 17,5 | 30,9 | -13,4 |
| Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 38917,2 | 49756,5 | 10839,3 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|------------------------|------------------------|-----------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transport-tirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 1847,0 | 2190,6 | 343,6 |
| Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 3723,2 | 5073,8 | 1350,6 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 11318,8 | 17154,6 | 5835,8 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 51,6 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 18,6 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 36,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 764,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 13,9 % ni tashkil etdi.





















Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,2 % (2020- yil yanvar-aprel oylarida 5,8 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 22,5 % ni, shuningdek, Taxiato'sh tumani 11,1 % ni, Xo'jayli tumani 8,2 % ni, To'rtko'l tumani 7,4 % ni, Qo'ng'iro't hamda Ellikqal'a I tumani 6,8 % ni tashkil etdi.













Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (105,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Taxiato'sh (198,5 %), Bo'zatov (151,6 %), Taxtako'pir (115,8 %), Chimboy (106,5 %), tumanlarida hamda Nukus shahri (106,1 %) qayd etildi.







**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

| | | | | | | | |
|---|-----------------------|------------------------|-------------------------|---|-----------------------|------------------------|-------------------------|
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 764,9 | 100 | 105,7 | | 12,1 | 1,6 | 100,2 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | | | | Nukus t. | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 44,6 | 5,8 | 104,1 | | 85,3 | 11,1 | 198,5 |
| Amudaryo | | | | Taxiatosh | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 51,4 | 6,7 | 105,1 | | 35,5 | 4,6 | 115,8 |
| Beruniy | | | | Taxtakopir | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 4,3 | 0,6 | 151,6 | | 56,3 | 7,4 | 100,7 |
| Bo'zatov | | | | To'rtko'l | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 46,6 | 6,1 | 101,5 | | 62,6 | 8,2 | 85,0 |
| Qonliko'l | | | | Xo'jayli | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 9,3 | 1,2 | 100,5 | | 48,9 | 6,4 | 106,5 |
| Qoraov'zak | | | | Chimboy | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 12,2 | 1,6 | 100,3 | | 10,5 | 1,4 | 100,2 |
| Kegeyli | | | | Shumanay | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 51,9 | 6,8 | 103,2 | | 52,4 | 6,8 | 81,8 |
| Qo'ng'iro't | | | | Ellikqal'a | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 9,0 | 1,2 | 64,7 | | 172,0 | 22,5 | 106,1 |
| Mo'ynoq | | | | Nukus sh. | | | |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 27,0 %, shuningdek, Ellikqal'a tumani 11,3 %, Xo'jayli tumani 10,5 % ni, Chimboy tumani 9,2 % ni, Qo'ng'iro't tumani 9,0 % ni, Amudaryo tumani 8,2 % ni, Beruniy tumani 7,0 % ni hamda To'rtko'l tumani 6,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika (95,6 %) o'sish sur'atidan yuqori ko'rsatkich Amudaryo (131,9 %), Shumanay (115,5 %), Qonliko'l (106,2 %), To'rtko'l (105,9 %), Taxtako'pir(105,5 %), Qorao'zak (105,3 %) tumanlarida va Nukus shahar (104,3 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

| | | | | | | | |
|---|-------------------|--------------------|---------------------|---|-------------------|--------------------|---------------------|
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 259,7 | 100 | 95,6 | | 2,8 | 1,1 | 84,5 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | | | | Nukus t. | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 21,2 | 8,2 | 131,9 | | 2,2 | 0,9 | 71,2 |
| Amudaryo | | | | Taxiatosh | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 18,2 | 7,0 | 102,0 | | 6,5 | 2,5 | 105,5 |
| Beruniy | | | | Taxtako'pir | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 0,6 | 0,2 | 69,4 | | 15,5 | 6,0 | 105,9 |
| Bo'zatov | | | | To'rtko'l | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 9,0 | 3,4 | 106,2 | | 27,4 | 10,5 | 77,4 |
| Qonliko'l | | | | Xo'jayli | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 1,6 | 0,6 | 105,3 | | 24,0 | 9,2 | 102,5 |
| Qorao'zak | | | | Chimboy | | | |

| | | | | | | | |
|---|-------------------|--------------------|---------------------|---|-------------------|--------------------|---------------------|
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 3,4 | 1,3 | 96,4 | | 3,5 | 1,3 | 115,5 |
| Kegeyli | | | | Shumanay | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 23,2 | 9,0 | 91,1 | | 29,4 | 11,3 | 78,8 |
| Qo'ng'iro't | | | | Ellikqal'a | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 1,2 | 0,5 | 27,1 | | 70,0 | 27,0 | 104,3 |
| Mo'ynoq | | | | Nukus sh. | | | |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,2 %, shuningdek, Taxiato'sh 16,5 % ni, To'rtko'l 8,1 % ni, Qonliko'l 7,4 % ni, Xo'jayli 7,0 % ni, Beruniy 6,6 % ni, Taxtako'pir 5,8 % ni hamda 5,7 % ni Qo'ng'iro't tumanlari tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Taxiato'sh(208,4 %), Bo'zatov (188,0 %), Taxtako'pir (118,3 %), Qo'ng'iro't (115,8 %), Chimboy (110,7 %), Beruniy (106,9 %), Nukus (106,2 %) tumanlarida hamda Nukus shahrida (107,3 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-aprel oylarida

| | | | | | | | |
|---|-------------------|--------------------|---------------------|---|-------------------|--------------------|---------------------|
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 505,2 | 100 | 111,7 | | 9,3 | 1,8 | 106,2 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | | | | Nukus t. | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 23,4 | 4,6 | 87,5 | | 83,1 | 16,5 | 208,4 |
| Amudaryo | | | | Taxiato'sh | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 33,2 | 6,6 | 106,9 | | 29,0 | 5,8 | 118,3 |
| Beruniy | | | | Taxtako'pir | | | |



















| | | | | | | | |
|---|------------------|--------------------|---------------------|---|------------------|--------------------|---------------------|
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 3,7 | 0,7 | 188,0 | | 40,8 | 8,1 | 98,9 |
| Bo'zatov | | | | To'rtko'l | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 37,6 | 7,4 | 100,5 | | 35,2 | 7,0 | 92,0 |
| Qonliko'l | | | | Xo'jayli | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 7,7 | 1,5 | 99,6 | | 24,9 | 4,9 | 110,7 |
| Qorao'zak | | | | Chimboy | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 8,8 | 1,7 | 101,9 | | 7,0 | 1,4 | 93,9 |
| Kegeyli | | | | Shumanay | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 28,7 | 5,7 | 115,8 | | 23,0 | 4,6 | 85,9 |
| Qo'ng'iro't | | | | Ellikqal'a | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 7,8 | 1,5 | 82,0 | | 102,0 | 20,2 | 107,3 |
| Mo'ynoq | | | | Nukus sh. | | | |

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-aprel oylarida


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3295,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 59,9 % ni tashkil etdi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-aprel oylarida**

| | | | | | | | |
|---|------------------------------------|----------------------------------|-------------------------------------|---|------------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------|
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 5504,2 | <i>Ulushi % da</i> 100 | <i>O'sishi % da</i> 109,3 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 73,9 | <i>Ulushi % da</i> 1,3 | <i>O'sishi % da</i> 93,6 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | | | | Nukus t. | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 149,4 | <i>Ulushi % da</i> 2,7 | <i>O'sishi % da</i> 103,2 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 716,0 | <i>Ulushi % da</i> 13,0 | <i>O'sishi % da</i> 147,1 |
| Amudaryo | | | | Taxiatosh | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 106,4 | <i>Ulushi % da</i> 1,9 | <i>O'sishi % da</i> 103,8 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 57,2 | <i>Ulushi % da</i> 1,0 | <i>O'sishi % da</i> 91,8 |
| Beruniy | | | | Taxtako'pir | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 54,1 | <i>Ulushi % da</i> 1,0 | <i>O'sishi % da</i> 116,5 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 116,4 | <i>Ulushi % da</i> 2,1 | <i>O'sishi % da</i> 88,5 |
| Bo'zatov | | | | To'rtko'l | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 137,1 | <i>Ulushi % da</i> 2,5 | <i>O'sishi % da</i> 122,5 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 148,1 | <i>Ulushi % da</i> 2,7 | <i>O'sishi % da</i> 96,1 |
| Qonliko'l | | | | Xo'jayli | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 49,5 | <i>Ulushi % da</i> 0,9 | <i>O'sishi % da</i> 83,6 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 100,3 | <i>Ulushi % da</i> 1,8 | <i>O'sishi % da</i> 182,8 |
| Qorao'zak | | | | Chimboy | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 103,1 | <i>Ulushi % da</i> 1,9 | <i>O'sishi % da</i> 101,4 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 28,6 | <i>Ulushi % da</i> 0,5 | <i>O'sishi % da</i> 97,9 |
| Kegeyli | | | | Shumanay | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 214,4 | <i>Ulushi % da</i> 3,9 | <i>O'sishi % da</i> 104,5 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 135,8 | <i>Ulushi % da</i> 2,5 | <i>O'sishi % da</i> 106,0 |
| Qo'ng'iro't | | | | Ellikqal'a | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 25,0 | <i>Ulushi % da</i> 0,5 | <i>O'sishi % da</i> 88,1 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 3288,9 | <i>Ulushi % da</i> 59,8 | <i>O'sishi % da</i> 116,1 |
| Mo'ynoq | | | | Nukus sh. | | | |


Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da



Respublika sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishshini, Chimboy (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 182,8 %), Taxiato'sh (147,1 %), Qonliko'l (122,5 %), Bo'zatov (116,5 %) tumanlarida hamda Nukus shahrida (116,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 59,8 %), Taxiatosh (13,0 %), Qo'ng'iro't (3,9 %), Amudaryo hamda Xo'jayli (2,7 %), Qonliko'l hamda Ellikqal'a (2,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa %), Mo'ynoq hamda Shumanay (0,5 %), Qorao'zak (0,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (10135,2 ming so'm) va Taxiatosh tumanida 9584,9 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (2858,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 397,2 ming so'm bo'lgani holda, Taxiatosh tumanida 1142,4 ming so'mni, Qonliko'l tumanida – 898,5 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida – 878,6 ming so'mni, Xo'jayli tumanida – 503,3 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so'm**



| | | | | | |
|---|---------------------|-----------------------|---|---------------------|-----------------------|
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 2858,4 | 397,2 | | 1442,8 | 236,3 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | | | Nukus t. | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 741,1 | 221,4 | | 9584,9 | 1142,4 |
| Amudaryo | | | Taxiatosh | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 546,3 | 263,6 | | 1416,0 | 878,6 |
| Beruniy | | | Taxtako'pir | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 2468,0 | 195,6 | | 534,1 | 258,6 |
| Bo'zatov | | | To'rtko'l | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 2647,1 | 898,5 | | 1190,9 | 503,3 |
| Qonliko'l | | | Xo'jayli | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 929,9 | 174,6 | | 888,8 | 432,7 |
| Qorao'zak | | | Chimboy | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 1402,7 | 165,6 | | 505,8 | 185,7 |
| Kegeyli | | | Shumanay | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 1629,3 | 394,7 | | 837,4 | 323,2 |
| Qo'ng'iro't | | | Ellikqal'a | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| | 770,7 | 276,3 | | 10135,2 | 530,2 |
| Mo'ynoq | | | Nukus sh. | | |

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 887,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,8 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Moʻynoq va Shumanay tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kegeyli (87,8 %) hamda Xoʻjayli (79,3 %) tumanlarida kuzatildi.



Respublikamiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Nukus shahriga (5,7 %), Qonlikoʻl (7,4 %), Boʻzatov (7,9 %) hamda Taxiotosh (12,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda respublikada 3018 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1512 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 50,1 %) Nukus shahriga 638 tasi (21,1 %), To'rtko'l 330 tasi (10,9 %), Beruniy 276 tasi (9,2 %), Amudaryo 268 tasi (8,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



2021- yil yanvar-aprel oylarida respublikada 301 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 159 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 52,8 %) Nukus shahrida 66 tasi (21,9 %), Amudaryo 40 tasi (13,3 %), Ellikqal'a 31 tasi (10,3 %), To'rtko'l 22 tasi (7,3 %) tumanlarida tashkil etildi.